

**2022 yil "09" avgust Xizmatni xarid qilish bo'yicha tender o'tkazish bo'yicha
130630-sonli xarid komissiyasining bayonnomasiga asosan
3 - sonli PUDRAT SHARTNOMASI**

2022 y. «16» 8

777-13-181-MT/2022-
son

Mang'it sh.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan "Amudarvo tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi" nomidan Nizom asosida ish yurituvchi Sadikova Saida Sidamatovna bir tomondan, va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "KAMALOV ESHIKLARI" MCHJ nomidan Nizom asosida ish yurituvchi rahbar Kamalov Baxadir Madrimovich ikkinchi tomondan bo'lib Amudarvo tumani 44-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy tamirlashga doir pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. Shartnoma mavzusi

1.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Amudarvo tumani 44-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy tamirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi.

1.2. "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish va to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlarini oladi.

1.3. Joriy ta'mirlash ishlari sifatli bo'lishi shart.

2. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlar umumiy qiymati qo'shimcha qiymat solig'i bilan 248 500 000 (Ikki yuz qirq sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi

2.2. Ishlar qiymati uzil kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Kuyidagi xollar mustasno:

-Ta'mirlash qiymati va muddatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan (fors – major) xolati sabab bo'lganda;

-Ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

-Ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqcha o'zgartirilganda.

2.3. Ta'mirlash muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda sanab o'tilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" o'rtasidagi shartnomasiga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3. Pudratchining majburiyatlari.

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" shartnomaning 1- chi bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq bajarish va o'z muddatida bajarish xamda, ishni "Buyurtmachi"ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish.

3.2. Ta'mirlash maydoniga zarur bo'lgan materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarni yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4. Buyurtmachi majburiyatlari

4.1. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarni "Pudratchi" tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning topshirilishi uchun to'liq mulkiy javob beradi.

Ishlar bajarilishi ustida doimiy qurilish nazorati va mazkur shartnomada qayd etilgan "Pudratchi" tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish. "Pudratchi" dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; Shartnomaga asosan "Pudratchi" ga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish va mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini oladi.

5. Ishlarni bajarish muddati

5.1 "Pudratchi" mazkur shartnomaga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

5.2 Ishlarni bajarish muddati avans to'lovidan et'tiboran 15 kunni tashkil etadi.

5.3 Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

6. To'lovlar va xisob – kitoblar

6.1 "Shartnoma kuchga kirib, tegishli Gaznachilik tizimidan ruyxatdan utib, byudjet mablaglari xisobidan bulsa Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 414-sonli karori bilan belgilangan tulovlar ketma ketligiga, byudjetdan tashkari mablaglar xisobidan bulsa shaxsiy xisob varak koldikka asosan 5 bank ish kunida "Buyurtmachi" bajarilgan ish yoki kursatilgan xizmatning umumiy summasining **30 foizini bu 74 550 000 (Etmish to'rt million besh yuz ellik ming)** so'mni tashkil etadi, oldindan avans tarikasida "Pudratchi" ning xisob rakamiga o'tkazib beradi. Kolgan kismi bajarilgan ishlarni kursatilgan xizmatlarni xisob fakturaga asosan utkazib beriladi.

6.2 "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi" ga avans berish va mablag'larni to'lash uchun ishlarni bajarish va topshirish dalolatnomalari asos xisoblanadi. Ishlarni qabul qilish dalolatnomalari xar oyining oxirida "Buyurtmachi" tomonidan 72 soat mobaynida ko'rib chiqilib rasmiylashtirilishi zarur. Ko'shimcha kilingan ishlar kerakli xujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng kushimcha kelishuvga asosan utkazib beriladi.

7. Ishlarni bajarish

7.1 "Buyurtmachi" ta'mirlash maydonida o'z vakilini "Texnik nazoratchi" ni tayinlaydi. U "Pudratchi" tomonidan bajarilgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek "Pudratchi" tomonidan foydalanadigan materiallar va asbob – uskunalar shartnoma shartlariga muvofiqligini tekshiradi.

7.2 "Pudratchi" ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning V – bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasiga va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

7.3 "Pudratchi" o'zi tomonidan ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob – uskunalari va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini xamda ularni sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga texnik pasportlarga yoki boshqa xujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors – major) xolatlar.

8.1 Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlar natijasida kelib chiqsa va agar xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar undan yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2 Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqt cho'zilsa, u xolda "Pudratchi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirishi yoki ularni konservatsiya qilishi uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

8.3 Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir

9. Qurilish tugallangan ob'ektni qabul qilib olish

9.1 Ob'ektlarni ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida "Pudratchi" yozma bildiruvdan keyin "Buyurtmachi" tomonidan 3 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

9.2 Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt "Buyurtmachi"ning mulkiga aylanadi.

10. Shartnomani bekor qilish.

10.1 Shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi "Buyurtmachi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra "Pudratchi" tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktiriganda;

"Buyurtmachi" tomonidan moliyalashtirish ishlari bajarilmaganda.

10.2 Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazgan zararni shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

10.3 Shartnoma Gaznachilik bo'linmasi ruyxatidan o'tkandan so'ng kuchga kiradi va **"31" dekabr 2022 yilgacha amal qiladi**

11. Tomonlarning xuquqiy javobgarligi

11.1 Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazgan zararni to'laydi;

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga, "Iqtisodiy yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 3- sentyabridagi "Kapital qurilishda iqtisodiy munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi 395- sonli qarori (ilova 2.3) va boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

11.2 Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilagn o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarning buzilganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi. Bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlarning 50% oshmasligi lozim.

11.3 "Pudratchi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,04% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50%dan oshmasligi lozim.

12. Korrupsiyaga qarshi qoidalarining asosiy shartlari

12.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;

tovlamachilik qilish;
 pora sifatida pul to'lash;
 bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

12.2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (davlat organi yoki takshlotining nomi) xodimining axloqqa o'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni;

Telegram-kanali ("@xxxxxxxxxxx");

(davlat organi yoki takshlotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

13. Nizolarni xal etish tartibi.

13. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

14. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari

«Sotuvchi» <u>"KAMALOV ESHIKLARI"</u> <u>MCHJ</u> (sotuvchining nomi)	«Xaridor» Amudaryo tumani maktabgacha ta'lim bo'limi (xaridorning nomi)
Manzil: Amudaryo tumani Mang'it shahri Do'stlik ko'chasi 8 uy Tel./faks +99894-454-10-42 R/s 2020 8000 3002 4831 7001 Bank: Toshkent sh, AT Alokabank bosh ofisi MFO: 00401 INN: 302 683 082	Manzil: Amudaryo tumani Mang'it shahri Barkamol avlod ko'chasi r/u Tel./fax +998 55 103-32-16 L/s* 100022860352047091100251040 INN 207267037 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi X'r 23402000300100001010 INN: 201122919 MFO: 00014 Bank: Markaz-bank Toshkent shahri



[Handwritten signature]

Kamalov Baxadir Madrimovich

Mudir



da Sidamatovna

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2021-yildagi PQ-5168-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari haqida"gi Nizomiga asoslanib **Amudaryo tumani Maktabgacha ta'limi bo'limining Xo'jalik shartnoma loyihasi** huquqiy ekspertizadan otkazilganda quyidagilar

ANIQLANDI:

1. Loyihaning turi: Xo'jalik shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi tuzish to'g'risida.

3. Loyiha mazmuni:

Amudaryo tumani Maktabgacha ta'limi bo'limining, "**Buyurtmachi**" va "**KAMALOV ESHIKLARI**" ma'suliyati cheklangan jamiyati "**Pudratchi**" o'rtasida 44-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy tamirlash bo'yicha loyiha qiymati 248 500 000 (Ikki yuz qirq sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qilgan qurilishi ta'mirlash ishlarini bajarish maqsadida 2022-yil 15-avgust kuni tuzilgan "Pudrat shartnomasi" to'g'risida.

4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Amudaryo tumani Maktabgacha ta'limi bo'limi tomonidan, 2022-yil 15-avgust kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 15-avgust kuni dasturga kiritilgan.

Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida»gi №670-I-son Qonunining 25-moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Amudaryo tumani Maktabgacha ta'limi bo'limi tomonidan taqdim etilgan Xo'jalik shartnoma loyiha O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida»gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me'yorlariga javob beradi Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me'yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog'liq shartlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari me'yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan

belgilangan talablarga to'liq mos keladi. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqoralik Kodeksining Pudrat shartnomasi munosabatlarini tartibga soluvchi 37-bobi jumladan, 631,632,636,638-moddalari bilan tartibga solinadi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 3-sentyabridagi "Kapital qurilishda iqtisodiy munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi 395-sonli qaror me'yorlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Amudaryo tumani adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti 1-darajali yurist**



**Sh.Sh.Vaisniyazov
16.08.2022 yil**